

## O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI

**Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi**

*ToshDO'TAU 1-kurs magistranti*

*gulchamngulcamn@gmail.com +998887069302*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida tazkiralarning tadqiqi haqida so'z boradi. Tadqiqotni olib borgan olimlar hamda ularning tadqiqot ishlari tartib bo'yicha jurnalga kirgan maqolalar o'rganiladi. Jurnalning tashkil etilganidan to bugungi kunga qadar mumtoz adabiyotimiz tarixida yozilgan Alisher Navoiy ijodining nodir durdonasi bo'lgan "Majolis un-nafois" tazkirasining maqolalardagi xronologiyasini tuzishga harakat qilingan. O'rganilgan tazkiralardagi olimlarning samarali mehnatlari e'tirof etiladi. Tadqiq etilgan tazkiralarning o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni borasida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *tazkira, tadqiqot, yodnoma, mumtoz, tabdil, tarjima.*

**Аннотация:** *В этой статье рассказывается об исследовании "Тазкира в журнале" узбекский язык и литература". Ученые, проводившие исследование, изучаются по порядку. С момента основания журнала и до сегодняшнего дня предпринимались попытки составить хронологию статей, написанных по истории нашей классической литературы. Плодотворная работа ученых в изученных тазкирах признана. Речь идет о роли исследованных тазкиров в узбекской классической литературе.*

**Ключевые слова:** *Тазкира, исследование, памятка, классика, табдил, перевод.*

**Abstract:** *This article will talk about the study of Tazkiras in the Journal "Uzbek language and literature". The scientists who carried out the study will be studied according to the order. From the founding of the magazine to the present day, an attempt has been made to compile a chronology of articles written in the history of our classical literature. The effective work of scientists in the studied tazkira is recognized. The role of the studied Tazkira in Uzbek classical literature is discussed.*

**Key words:** *tazkira, research, memorabilia, classical, tabdil, translation.*

Turon zamini o'z bag'rida buyuk daholarni yetishtirgan muqaddas diyor sanaladi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Muhammad Al-Xorazmiy singari buyuk zotlar ilm-fan inkishofiga beqiyos hissa qo'shgan bo'lsalar, Sharq uyg'onish davrining yetuklari Navoiy, Bobur singari allomalar adabiyot va san'at rivojiga kamarbastalik qildi. Shu ma'noda tarixiy adabiy manbalarni o'rganish, ularda zikr etilgan ma'lumotlarni o'zlashtirish, targ'ib va tashviq etish bugungi avlod zimmasidagi mas'uliyatli vazifalardan biridir. Tarixiy nasriy asarlar, tazkiralarning va yodnomalarning qa'ridagi asliyatni anglash va uni ommalashtirish insoniyatning ma'naviy kamoloti yo'lida safarbar etishga xizmat qiladi.

Yurtimizda faoliyat olib borgan adabiyotshunos, matnshunos, manbashunos olimlar tarixiy manbalarni qiyosiy-tipologik usulda chog'ishtirib, ularni ilmiy-tanqidiy matnlarini

amalga oshirgan. Mazkur maqolada o‘tmishda yaratilgan tazkira — yodnomamalarni o‘rganish yo‘lida olib borilgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar filologik aspektda kuzatilgan. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining turli yillardagi nusxalarida adabiyotshunos olimlarning tazkiralari tadqiqiga oid chop ettirilgan maqolalari bir tizimga solinib, qiyosiy usulda o‘rganilgan.

Tarixda mavjud: Muhammad Avfiyning “Lubob ul-albob”, “Taboqat us-sufiya” (Abdurahmon Sulamiy, X-XI asarlar), “Tazkirat ul-avliyo” (Farididdin Attor, XII asr), “Nafahot ul-uns” (Abdurahmon Jomiy, XV asr), Abu Tohir Xotuniyning (XI) “Manoqib ush-shuaro”, Davlatshoh Samarqandiyning Navoiyga bag‘ishlangan “Tazkirat ush-shuaro” (1486), Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” singari tazkiralari asrlar davomida mutaxassislar tomonidan tekshirib kelingan. Tazkiralarda adib ijodi va mahoratiga munosabat bildirish asnosida muallifning adabiy-tanqidiy qarashlari aks ettirilgan.

Ma’lumki, filologiya ixtisosligi bo‘yicha keng qamrovga ega “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnaliga 1958-yil shoir va yozuvchi Oybek asos solgan. Kuzatishlar asnosida 1958-yildan 2021-yilgacha tazkira va yodnomalar tadqiqiga oid maqola bosilgani ma’lum bo‘ldi. Ulardan 1958-yildan 2019-yilgacha 9ta maqola Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari terisida bo‘lsa, qolganlari Hasanxo‘ja Nisoriy “Muzakkir ul-axbob”, Gulxaniyning “Majmuai shoiron”, Saxiyning “Hasht Behist”, Majzub Namangoniyning “Tazkirat ul-avliyo” tazkiralari bag‘ishlanadi.

“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1958-yil 1-sonida adabiyotshunos A.Hayitmetovning “Majolis un-nafois” haqida ba’zi mulohazalar” nomli maqolasi e’lon qilingan (Hayitmetov A, 1958, 53-bet). Olim A.Hayitmetov tazkiraga quyidagicha ta’rif beradi: “Tazkira (arabcha zikr so‘zidan olingan bo‘lib, eslash, xotiraga keltirish” ma’nosida qo‘llaniladi. Demak, tazkiralarning afzalligi tarixiy shaxslarning xotirasining abadiylashtirilishi millatdoshlarda o‘tmishdagi ijodkorlar haqida tasavvur uyg‘onishiga yordam beradi. “Majolid un-nafois” birinchi galda o‘zining shu tomoni bilan katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘sha davrdagi adabiy hayotni o‘rganishda yagona manba sifatida ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga tortib keldi va kelmoqda” (O‘sha manba, 55-bet).

Maqolada “Majolis un-nafoisning yaratilish yillari, qo‘lyozma nusxalari, asar haqidagi Navoiyning o‘z fikr muxtasar bayon qilingan. A.Hayitmetov tazkira 1948-yilda “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari bilan birga “Majolis un-nafois” nomi ostida Oybek va Porso Shamsiyevlar tomonidan nashr qilinganligini xabar qiladi.

Navoiy o‘z asarlari bilan nafaqat adabiyot, tarix, ilm-u fan rivojiga hissa qo‘shdi, balki o‘zbek xalqi va, umuman, turkiy xalqlar ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qildi. Uning adabiy merosini o‘rganish bugungi kun yoshlari uchun adabiy didni yuksaltirish, tarixni o‘rganish, ma’naviy qadriyatlarni, o‘zlikni anglashda nihoyatda ahamiyatlidir. (file:///C:/Users/User/Downloads/Yosh+olimlar+1342.pdf)

1964-yilda S.G‘aniyeva “Majolis un-nafois” tarjimalari haqidagi tadqiqotini e’lon qilgan (Suyuma G ‘aniyeva, 1963, 68-bet). Olima S.G‘aniyeva tazkiraning uchta tarjimasi borligi haqida ma’lumot berish bilan birga ularning o‘zaro farqlarini qiyoslab ko‘rsatgan. Tarjimalarning birinchisi Faxriy tomonidan Eronda yozilgan va uni safaviylar hukmdori Toxmaspaga bag‘ishlagan. Ikkinchi tarjima Qazviniy tomonidan amalga oshirilgan, Sulton



Salimga bag‘ishlagan. va hozirda Istanbulda saqlanadi. Uchinchi tarjima esa Shohali Abulhalil tomonidan amalga oshirilgan. Hozirda Britaniya muzeyida saqlanadi va Nishopur hukmdori Dinmuhammadga bag‘ishlanadi.

1965-yil V.Abdullayev bilan B.Valixo‘jayev hammuallifligidagi “Majolis un-nafois” tipidagi bir tazkira haqida” (Abdullayev V. Valixo‘jayev B, 1965, 18-bet) maqolasi bosilib chiqdi.

“Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” nomli asari Sharq adabiyotidagi tazkirachilik traditsiyasi zaminida paydo bo‘lib, o‘z navbatida bu traditsiyani boyitgan, rivojlantirgan tasniflardandir (O‘sha manba, 18-bet)”.

Mazkur fikrlari orqali olimlar asarning turkiy tilde yaratilgan ilk tazkira ekanligiga ishora qilmoqda. Alisher Navoiydan keyin turkiy tilde jami 31ta tazkira yaratilgan.

S.G‘aniyeva izlanishlariningdavomi sifatida M.Xalilovanning “Majolis un-nafois”ning forsiycha uchinchi tarjimasini” (Xalilova M., 2000, 51-53-bet) maqolasini ko‘rsatish mumkin. Maqolada tarjimonning asarga ko‘plab o‘zgartirish va katta qisqartirishlar kiritgani qayd etilgan. M.Xalilova buni quyidagicha izohlaydi:

“Faxriy o‘z tarjimasini “Latoifnoma” deb atagan va unga 188 shoir haqida ma‘lumot beruvchi 9 ta majlisni ilova qilgan. (Bu majlis o‘z navbatida yana 9 qismga bo‘linadi va ulardan birinchisi Navoiyning o‘ziga bag‘ishlanadi). U Sulton Husayn Bayqaroga bag‘ishlangan VIII majlisni nihoyatda qisqartirib tashlab, umimg she‘rlaridan keltirilgan 168 ta baytdan 2 baytgina namuna uchun beradi” (O‘sha manba, 51-bet).

2010-yil S.Umarovanning ‘Majolis un-nafois’ning ilmiy-tanqidiy matni xususida” (Umarova S., 2010, 49-53-betlar) nomli maqolasi chop qilingan. Maqolada asarning 1879-yilda toshbosma nusxasi chop etilgani va bundan keyin necha marta va qaysi matbaalarda nashr etilgani haqida so‘z boradi. Asarning tanqidiy matnini yaratishda Vena, Parij, Sank-Peterburg, Boku va ikkita Toshkent nusxasi asos qilib olingani aytiladi. Bu vazifani olima Suyuma G‘aniyeva amalga oshiradi. Sohiba Umarova asarning adabiy-tanqidiy matnini yaratishni sababini quyidagicha keltirib o‘tadi:

“Majolis un-nafois” ilmiy-tanqidiy matnini tuzishdan maqsad:

a) tazkiradan nusxa ko‘chiruvchi kotiblar asar matnini qanday tushungan va tahririga xos o‘zgarishlarni aniqlash;

b) asarning birinchi va ikkinchi tahririga xos o‘zgarishlarni uzatish;

v) matnshunoslik sohasida va “Majolis un-nafois” ustida bo‘ladigan kelgusi tadqiqotlarga namuna va materiallar berish kabilar. Shunga ko‘ra, S. G‘aniyeva nusxalar o‘rtasidagi o‘zaro farqlarning deyarli barchasini nashrda qayd etib borishni ma‘qul ko‘radi (O‘sha manba, 50-bet)”

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi turkiy tazkiralar uchun debocha bo‘ldi. Tazkiralar ma‘lum bir shaxsni xotirlash bilan birga, muallif bayon qilayotgan xalq tilini, madaniyatini tashuvchi vosita hamdir. XX asrda “Majolis un-nafois” asari qatorida yana bir qancha tazkiralar doirasida ham tadqiqotlar olib borilganki, mazkur ishda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida sahifasidagi “Majolis un-nafois” tazkirasi yuzasidan munosabat bildirildi, xolos. Izlanishlarning katta qismi ayni asar haqida bo‘lganligining bosh sababi har qanday adabiy jarayon Navoiysiz bo‘lmasligidan



dalildir. Maqolalarda asarga turli xil, bir-birini takrorlamaydigan yondashuvlarning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Eng ko‘p tadqiqot olimi Suyuma G‘aniyeva tomonidan amalga oshirilgan. Ammo jurnalning dastlabki yillaridan keyin 2023-yilgacha bo‘lgan vaqt davomida bu mavzudagi maqolalar soni kamaya boshlagan. Bizning keyingi vazifamiz ana shu yangi tazkiralalar, xususan, XXI asr tazkirachiligi qanday ekanligiga javob topishdir.

### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Hayitmetov (1958) “Majolis un-nafois” haqida ba’zi mulohazalar”.. O‘zbektili va adabiyoti, 1-son. 53-59
2. S. G‘aniyeva. (1963) “Navoiyning “Majolis-un nafois” asari ta’sirida yozilgan tazkira, O‘zbek tili va adabiyoti, 5-son. 68-60.
3. S. G‘aniyeva. (1964) “Majolis un-nafois”ning forsiy tarjimasidagi ba’zi ilovalar haqida” O‘zbek tili va adabiyoti,. 2-son. 64-67.
4. V.Abdullayev. B.Valixo‘jayev “Majolis un-nafois” tipidagi bir tazkira haqida” (1965) O‘zbek tili va adabiyoti, 5-son. 18-23.
5. , S. G‘aniyeva (1970) “Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi va samarqandlik shoirlar, O‘zbek tili va adabiyoti, 6-son24-28.
6. M. Xalilova (2000) “Majolis un-nafois”ning forsiycha uchinchi tarjimasi” O‘zbek tili va adabiyoti, 2-son. 51-53.
7. A. Hayitmetov (2004) “Majolis un-nafois”ning noyob bir nashri haqida” O‘zbek tili va adabiyoti, 4-son. 45-47.
8. S. Umarova (2010) “Majolis un-nafois”ning ilmiy-tanqidiy matni xususida”O‘zbek tili va adabiyoti, 2-son. 49-53.